



Onomastic units naming mythical objects in Khorezm dastans

Quvondiq OLLOYOROV¹, Raykhon YULDASHEVA², Lutfiya ABDISHARIBOVA³

Urgench State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2023

Received in revised form

10 January 2023

Accepted 25 February 2023

Available online

15 March 2023

Keywords:

onomastics,
mythonym,
anthroponym,
female.

ABSTRACT

In this article, the linguistic features of the proper nouns used to name unreal objects found in Khorezm dastans are considered. In particular, naming bases and principles of units of this type are described.

2181-3663/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss2-pp86-90>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Xorazm dostonlaridagi mifik xarakterdagi ob'yektlarni nomlovchi onomastik birliklar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

onomastika,
mifonim,
antroponim,
ayol nomi.

Ushbu maqolada Xorazm dostonlarida uchraydigan noreal ob'yektlarni nomlab kelgan atoqli otlarning lisoniy xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Jumladan, bunday tipdagi birliklarning nomlanish asoslari, prinsiplari tavsiflanadi.

Ономастические единицы, именующие мифических объектов в Хорезмских дастанах

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

ономастика,
мифоним,
антропоним,
женское имя.

В данной статье рассматриваются лингвистические особенности имен собственных, используемых для обозначения нереальных объектов, использованных в хорезмских дастанах. В частности, описаны основы и принципы именования единиц этого типа.

¹ Doctor of Philosophy on Philological Sciences, Associate Professor, Urgench State University. E-mail: quvondiq.o@urdu.uz

² Master Student, Urgench State University. E-mail: rayxonyol@gmail.com

³ Master Student, Urgench State University. E-mail: lutfiyaabdusharipova@gmail.com

SUMMARY

Despite the fact that a number of scientific studies have been conducted to study the linguistic aspects of Khorezm dastans, there have been few independent investigations of the onomastic system, especially mythical names. Various types of mythical names in Khorezm dastans, including anthropomiphonyms (mythical person names), mythical oronyms (mythical mountain names), zoomiphonyms (mythical animal names) are analyzed in this article.

In this article, onomastic elements of a legendary character are analyzed using the methods of comparative, historical, structural and etymological analysis.

The following aspects of this type of names in the language of the Khorezm dastans were determined by the conducted investigations (analyses):

- Names of a legendary nature were divided into several types: including names of legendary people, names of legendary water bodies, mountains, etc.;
- Mythical names found in the language of dastans consist of one-component or more than one-component names;
- Names with a mythical character consist of layer units that are more appropriated by language layers.

By collecting and checking the mythical names found in Khorezm dastans, such names were compared with similar names found in the folklore of other nations, factual results were given regarding the structural, etymological and semantic characteristics of the analyzed names.

Mifik xarakterdagi nomlar xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan barcha janrlarda ham uchraydi. Ular aslida voqealarning rivoji bilan bog'liq holda o'ylab topiladi. Jannatga o'xshagan bog'lar, hashamatli qasrlar, yetti qat osmonga yetuvchi tog'lar, uchar otlar, og'zidan o't sochuvchi ilonlar kabi ob'yektlar aytuvchi baxshining bilimi, tasavvuriga ko'ra nomlanadi. Natijada, ular kishilar tasavvurida real ob'yektlar sifatida gavdalanadi. Xorazm dostonlari matnlarida uchraydigan shunday ayrim onomastik elementlar haqida fikr yuritimiz.

Ko'hi qof (كوه قاف) Ertak, mif va dostonlardagi afsonaviy tog'lardan birining nomi. Dunyoning bir chetida bo'lgan, yo'lining xatarli va olisligidan na inson va na hayvon qadami yetgan. **Anqo** yoki **Semurg'** nomli bahaybat qush va devlar makoni. Parilar bog'i **Irambog'** (bog'i Eram) ham shu yerda deb talqin etiladi. Ertaklarda *“bolalarini o'limdan xalos etgan qahramonni Semurg' o'z ustiga mindirib Ko'hi Qofga olib boradi”*. Dostonlarda *Go'ro'g'li dastlab piyoda, keyinchalik G'irotda, Avazxon esa devga minib, Ko'hi Qofga boradilar*. Buning uchun qahramonlar yo'lda **Balo** tog'idagi yovuz devlarni yengishlari, o'zlariga bo'ysundirishlari lozim. Go'ro'g'lining rafiqalari *Yunus* va *Misqol* parilar, Hasan Ko'lbar va Hasan Chopson kabilar shu tog'dan chiqqan deyiladi. Eron mifologiyasida Semurg' vatani Elburs tog'i deya talqin etiladi.

Ko'hi Qof deb nomlanuvchi oronimning tarkibida, aslida, faqat ikkinchi qism atoqli nom bo'lib, birinchi qismning o'zi forsiy tillarda “tog'” ma'nosida ekanini o'zbek tilida so'zlashuvchi aholi unutgan. Garchi mazkur nomdagi tog' mifik xarakterga ega bo'lsa ham, olamda mavjud qaysidir tog' ramzi asosida yuzaga kelgan bo'lishi haqiqatga yaqin. Hoizirgi *Kavkaz* tog'lari nomiga e'tibor qilinsa, dastlabki bo'g'in “qaf” tarzida talaffuz qilinadi. Shunga ko'ra, Ko'hi Qof – Kavkaz tog'larining mifologik tasavvuri degan tushuncha ham mavjud.

Mazkur nom Xorazm dostonlarining deyarli barchasida uchrashi mumkin bo'lgan nomlardan biri hisoblanadi. Bunday nomlar, ya'ni dostonlararo ko'chib yuruvchi nomlar ilmiy adabiyotlarda "qaytariq nomlar" atamasi bilan izohlanadi [1.182].

Umuman, xalq og'zaki ijodidagi joy nomlarini reallashtirishga urinish, tinglovchi yoki baxshining syujetdagi voqealarga ishonishi yoki ishontirishi bilan bog'liqdir. Nomlarni mavjud ob'yektga lokalizatsiyalash tinglovchida ushbu sezgini kuchaytirishga yordam beradi.

H. Bektemirov va D. Abdurahmonovlar o'zbek xalq dostonlari onomastikasini kuzatar ekanlar, bir qator "qaytariq nomlar" uchrashini e'tirof etadilar. Dostonlarda uchraydigan qaytariq nomlarni tasodifiy bir hol deb qaramaslik lozim. Masalaga chuqurroq yondashilsa, bu xildagi nomlarning qo'llanishida ma'lum bir qonuniyat va sababiyat bordek tuyuladi [1.183]. Bu holat ayniqsa, xayoliy nomlarda ko'proq namoyon bo'ladi. Masalan, *Chambil*, *Shahri Shabiston*, *Zangar shahri*, *Bog'i Eram*, *Gulshanbog'*, *Shakar ko'li*, *Asqar tog'i* va boshqalar ("Malikayi ayyor", "Balogardon", "Intizor", "Orzigul" dostonlarida).

Dostonlardagi qaytariq nomlarning o'ziga xos yana bir xususiyatiga e'tibor berish lozim. Ba'zan bir dostonlarda uchraydigan ma'lum joy nomlari turli xil hududlarda, hatto o'zga davlatlarda talqin qilinadi. Buni "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonida yaqqol kuzatish mumkin. Dostonning tarqalish areali ancha keng. O'zbekiston va Turkmanistonda, Ozarbayjon va Armanistonda, Gruziya va Kabardin-Balkariyada, shuningdek, Turkiyada ham "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Shohsanam – G'arib", "Oshiq G'arib" (G'arib oshiq) kabi nomlari bilan dostonni ko'pchilik taniydi. Ammo dostonda bayon qilingan voqealar qayerda sodir bo'lganini aniqlash ancha mushkul va ba'zan imkonsizdir. Chunki bu voqealar va qahramonlar xalq og'zaki ijodi xayolotining mahsulidir. Shunday bo'lsa-da, tadqiqotchilar bu voqealarning qachon va qayerda ro'y berganligini aniqlashga urinib ko'rganlar.

Ozarbayjondagi "Oshiq G'arib" dostonini tadqiq etgan S.Z. Yoqubova dostonidagi voqealar XVI–XVII asrlarda, safaviylar sulolasi davrida ro'y berganligini aytadi. S.P. Tolstov esa, XI–XII saljuqiylar sulolasi davrida sodir bo'lgan deydi.

S.Z. Yoqubovaning fikricha, voqealar Kavkaz va Kichik Osiyoda, S.P. Tolstov esa Suriya va Ozarbayjonda, saljuqiylar davlatining g'arbiy chegaralarida sodir bo'lgan degan fikrni ilgari suradi. Buning isboti sifatida Ozarbayjonda Shamoxa, Turkiyada Diyorbakr, Suriyada Halab nomli joylarning mavjudligini keltiradi. Biroq A. Ishaevning ta'kidlashicha, Kavkaz, Kichik Osiyoda tarqalgan "Oshiq G'arib" da bu nomlar emas, balki Tabriz, Tiflis, Arzurum kabi nomlar uchraydi [4.26]. Dostonni maxsus tekshirgan S.A. Andreev-Krivich va H.G'. Ko'ro'g'lilar uning dastlabki mazmuni O'rta Osiyo bilan aloqador deb hisoblaydilar.

A. Ishaevning yozishicha, bu fikr haqiqatga ancha yaqin. Chunki, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni turkiy tillarning o'g'uz guruhiga mansub bo'lgan ozarbayjon, turk va, ayniqsa, turkman tillarida hamda o'zbek tilining Xorazmdagi o'g'uz lahjasida juda keng tarqalgan. Bundan tashqari, dostonning Xorazm variantlarida tilga olingan joy nomlari, asar qahramonlari sharafiga qo'yilgan qal'a nomlari Diyorbakr, Shovazir, Shirvon, Shemoxa, Vayangan, Shohsanam, Oqchakelin, Shoabbos kabilar Xorazmda, aniqrog'i, qadimgi Xorazm yerlarida hozirgacha saqlanib qolgan.

S.P. Tolstovning ta'kidlashicha, Xorazm hududidagi *Halabqal'a*, *Yorbakir qal'a* (Diyorbakr), *Shirvonqal'a*, *Shamoxaqal'a*, *Voyangan* kabi toponimlar bizni xalq og'zaki ijodi tomon yetaklaydi. Buni xalq og'zaki ijodining o'ziga xos moddiylashuvi deb

hisoblash ham mumkin. Darhaqiqat, Ko'hna Urganch shahridan to'qson kilometr janubi-g'arbda Shohsanam qal'asi qoldiqlari ham mavjud. Bu shaharda, arxeologlarning qayd qilishicha, eramizdan oldingi IV-III asrlardan to eramizning XIV asrigacha odamlar hayot kechirganlar. Shohsanam qal'asidan uncha uzoq bo'lmagan joyda Shohsanamning do'sti Oqcha bilan bog'liq *Oqchakelin*, unga yaqin joyda *Yorbakir* qal'alari ham mavjud. Xullas, yuqorida keltirilgan dalillar asosida A. Ishaev "asrlar davomida kuylanib, avloddan-avlodga o'tgan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining kurtagi saljuqiylar davlatining g'arbiy chegaralarida emas, balki uning sharqiy chegaralaridagi Xorazmda yaratilgan" degan xulosaga keladi.

Shohsanam qal'asida maxsus tekshirish olib borgan arxeolog Y.A. Rapoportning yozishicha, shaharda hayot to'xtashi bilan uning nomi ham unutilgan, keyinchalik turkman aholisi buni Shohsanam va G'arib afsonasi bilan bog'lagan. Bunday hodisalar toponimiyada tez-tez uchrab turadi. Xorazm yerlarida topilgan o'nlab qal'alarning xarobalari keyingi davrda turkiy aholi tomonidan qayta nomlangan. Ularning dastlabki nomlari haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Shu o'rinda Xorazmning qadimgi aholisi o'lik til hisoblangan xorazmiy tilida gaplashganligi va bu til eroniy tillar toifasiga kirganligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Shunday ekan, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonida uchraydigan nomlarning aksariyat qismini o'ylab topilgan nomlar sirasiga kiritish mumkin. Shunday nomlardan yana biri haqida to'xtalamiz.

Anqo. "Go'ro'g'li" turkum dostonlarida uchraydi. Dostonlardagi afsonaviy qush nomi. Dostonlar leksikasi va yozma adabiyotda baravar qo'llaniladigan nomlardan biri. Quyidagi parchaga diqqat qilaylik:

...*Ul tangridir jismi yo'g'u zoti bor,*

Anqo qushdir o'zi yo'g'u oti bor... [3.382].

Mazkur nom diniy-afsonaviy rivoyatlarda keltiriladigan noreal, o'ylab topilgan, mifik nomlardandir. Dostonlar tilida noreal o'ylab topilgan nomlar ichida hayvonlar bilan bog'liq mifonimlar ancha faol qo'llanilganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, "Oshiqnoma" tukum dostonlariga mansub bo'lgan "Xiromon pari" dostonidagi *Aspi Jahongir* onomastik birligini ana shunday nomlar qatoriga kiritish mumkin.

Aspi Jahongir. Mazkur nom "asp" va "jahongir" qismlaridan iborat bo'lgan murakkab tarkibli nomlardandir. Nomning ma'nosi ham o'zidan anglashilib turganidek, "jahonni aylanuvchi ot"ni anglatadi. Quyidagi misolga e'tibor qilaylik:

...*Otim mani aspi Jahon,*

Ustima minding bu zamon,

Tobe bo'ldi bu diri jon,*

Qo'rqmay mani nechuk minding? [5.401].

Otlar bilan bog'liq noreal, o'ylab topilgan nomlar orasida **Buroq** mifozoonimining qo'llanishi ham o'ziga xosliklari bilah ajralib turadi.

Buroq. Mazkur nom "Go'ro'g'li" turkum dostonlarida uchraydi. Diniy rivoyatlarga ko'ra, uni payg'ambarimiz minib, me'rojga chiqqan uchar otni anglatadi. Quyidagi parchada bu nom keltiriladi:

...*Arabning otidur chaqmoqday ildam*

Qochsa qutulolmas hatto Buroq ham [3.63]

* Xorazm o'g'uz lahjasidagi shevalarda **diri** – **tirik** ma'nosida qo'llaniladi.

Zulfiqor (afsonaviy qilich nomi). Payg'ambarimizning kuyovi, dostonlar leksikasida "Hazrati Ali", "Shohimardon" (mardlar shohi), "Sheri xudo" kabi nomlar va sifatlar bilan yuritiladigan diniy martabaga ega kishiga mansub bo'lgan afsonaviy qilichning nomi. Mazkur nom "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi "Arab tang'an" dostonida uchraydi:

*Dushman yuzi bo'lar qora,
Boshimni osarman dora,
Buyurarman **Zulfiqora**,
Kalla kasib qon aylarman.* [2.130]

Bulardan tashqari, Xorazm dostonlari leksikasida diniy-afsonaviy rivoyatlar bilan bog'liq nomlar toifasiga kiritish mumkin bo'lgan **Kavsar** (buloq, ba'zida hovuz, ayrim o'rinlarda ariq ma'nolarida qo'llanuvchi onomastik birlik), **Madinatul Qa'riya** (yer ostidagi shahar), **Makoil** (farishta nomi), **Musna** (afsonaviy qudratga ega bo'lgan ilon nomi), **Pulsirot** (ko'prik nomi, xalq orasida *Qilko'prik* tarzida ham ishlatiladi), **Chiltanlar** ("qirq tan" afsonaviy kuchga ega bo'lgan ramziy obraz. Dostonlarda *Chilton*, *Chihltan* kabi shakllarda ham qo'llaniladi), **Haftan**, **Setan** kabi onomastik birliklar ham yuqoridagi prinsip asosida hosil qilingan.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, xalq dostonlaridagi diniy-afsonaviy rivoyatlar bilan bog'liq nomlarning aksariyat qismi real ob'yektlar bilan bog'lansa, boshqa bir guruh nomlar xayoliy, afsonaviy, o'ylab topilgan nomlardir. Ammo bu xildagi nomlar ham doston voqealari xalq orasida keng tarqala borgan sayin moddiylashuvi, ya'ni biror real ob'yektga bog'lanishi mumkin ekan. Nomlarning ba'zilari garchi mavjud ob'yektни ifodalamasam ham, doston yaratuvchilari tasavvurida biron real ob'yektga qiyoslash, taqqoslash, o'xshatish orqali vujudga kelgan bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бектемиров Х, Абдурахмонов Д. "Ўзбек халқ дostonлари ономастикаси". "Ўзбек халқ ижоди" // Тўплам. –Тошкент: Фан, 1967. – В. 182.
2. Go'rog'li. Mas'ul muharrir S.R.Ro'zimboyev. – Urganch: Xorazm nashriyoti, 2004. – 480-b.
3. Go'ro'g'li. Nashrga tayyorlovchilar: To'ra Mirzo va Zubayda Husainova. Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li. –Toshkent: Sharq nashriyoti, 2006. – 448-b.
4. Ишаев А. "Шоҳсанамнинг ватани қаер?", – Тошкент: Фан ва турмуш журнали, 1971. – Б. 26–27.
5. Oshiqnoma. 2-kitob. Xiromon pari dostoni. Mas'ul muharrir S. Ro'zimboyev. – Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006. – 456-b.